

Rizayev Baxtiyor Nazarboyevich

Buxoro davlat universiteti tarix va yuridik fakulteti
jahon tarixi kafedrası dotsenti, tarix fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

SOTSIALISTIK QISHLOQ XO'JALIGI: NAZARIYA VA AMALIYOT

Annotatsiya. Rossiyada hukumat boshqaruvining bolsheviklar nazoratiga o'tishi, sotsialistik tuzum o'rnatishga bo'lgan urinishlar, jamiyat hayotida yangi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning o'ziga xos, alohida – alohida, lekin yagona maqsadga yo'naltirilgan strategiyani tatbiq etilishiga olib keldi. Ayni shu strategiyaning ajralmas tarkibiy qismi "Sotsialistik qishloq xo'jalik ishlab chiqarish tizimi" nazariyasi sifatida rivojlantirildi. Nazariya o'z navbatida qishloq xo'jalik sohasida yangi tendensiyalarni belgilab berdiki, oqibatda asriy ishlab chiqarish a'nanalariga putur yetdi. Xususiy mulkchilik shaklidan, jamoniylik sari yo'naltirilgan amaliy harakatlar jarayonida turli kutilmagan vaziyatlar yuzaga keldi. Ushbu nazariya yadrosini tashkil qiluvchi g'oya, uning amalda namoyon bo'lishi, kamchilik va nuqsonlari hamda bartaraf etish yo'llari mazkur maqolada batavsil tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Sotsializm, qishloq xo'jaligi, jamoaviy, xususiy, kapitalistik, kolxoz, davlat xo'jaligi.

СОЦИАЛИСТИЧЕСКОЕ СЕЛЬСКОЕ ХОЗЯЙСТВО: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Аннотация. Переход государственного контроля под контроль большевиков, меры, предпринятые по установлению социалистического строя, привели к реализации уникальной, отдельной, но единой целенаправленной стратегии радикального реформирования каждой сферы общества. В области сельского хозяйства получила практическое применение теория «Социалистической системы сельскохозяйственного производства». Практическое отражение этой теории, ее недостатки, дефекты и пути их устранения отражены в данной статье.

Ключевые слова: Социализм, сельское хозяйство, коллективное, частное, капиталистическое, колхозное, государственное хозяйство.

SOCIALIST AGRICULTURE: THEORY AND PRACTICE

Abstract. The transition of state control to the control of the Bolsheviks, the measures taken to establish the socialist system, led to the implementation of a unique, separate, but unified targeted strategy for radical reform of each sphere of society. In the field of agriculture, the theory of the "Socialist system of agricultural production" has received practical application. The practical reflection of this theory, its shortcomings, defects and ways to eliminate them are reflected in this article.

Key words: Socialism, agriculture, collective, private, capitalist, collective farm, state economy.

Bolsheviklarning hokimiyat tepasiga kelishi, markazlashgan ishlab chiqarishga asoslangan sovet xo'jaligini tashkil etish g'oyasini ilgari surilishi fonida yangi sotsialistik qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi tizimi yaratilishi ma'lum qilindi. Ushbu tizimni 20-yillarda izchillik bilan yaratish borasida olib borilgan amaliy harakatlar natijasi o'laroq xo'jalik yuritish, mulkka egalik shakli va mehnatni tashkil etishning yangi mexanizmlari amaliyotga tatbiq etildi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi tizimi nazariy asoslari sotsializm qurish nazariyasi g'oyalari bilan chambarchas bog'langan edi.

Sovet jamiyati taraqqiyotining ilmiy nazariyasi Marksizm - Leninizm g'oyalari asosida shakllantirildi. Sovet davlati va Kommunistik partiya xalqni Marks, Engels, Lenin va Stalin kabi

me'morlar tomonidan ilgari surilgan jamiyat rivojning obyektiv qonuniyati, kommunizm qurish hamda sovet xalqining yaratuvchilik faoliyati yotgan yorqin kelajak orzularini ro'yobga chiqarishga yo'naltiradi. Ilmiy nazariya mohiyatan sinfiy jamiyatdan insoniyat tarixini ilk davri namunasidagi sinfsiz jamiyat qurishga o'tilishini anglatadi. Ajablanarli jihati shundaki, oradan bir necha asr o'tib, insoniyat misli ko'rilmagan taraqqiyotga erishgan XX asr ushbu nazariyani ilgari surilishi va ko'pchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanishda edi. Holbuki, Marks doktrinasi XIX as o'rtalarida yaratilgan, XX asrga kelib o'zining amaliy ahamiyatini yo'qolgandi. Marks tomonidan kapitalistik tuzum har tomonlama tahlilga tortilib, uning salbiy illatlari bo'rttirib ko'rsatildi. Erkin bozor munosabatlariga asoslangan kapitalizmga sotsializm qarama-qarshi kuch sifatida talqin etiladi. Binobarin, totalitar rejim talablari asosida ishlashga ixtisoslashgan sotsialistik tuzum muayyan bir davr jamiyatda yuzga kelgan tushkinlik va umidsizlik kayfiyatini ijtimoiy adolat tamoiillari asosida tez hamda adolatli hal etishda ijobiy rol o'ynagani ham tarixdan ma'lum. Ammo, bozor iqtisodiyoti to'xtovsiz rivojlanib, tengsizlik chuqurlashib bordi. Sotsializm kapitalistik mamlakatlarda zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalari kapitalistlarning kichik guruhini tashkil etuvchi fermerlar qo'lida to'plangani, dehqonlarning aksariyati o'z shaxsiy dehqon xo'jaligida mashaqqatli qo'l mehnati va ma'nan eskirgan texnikalardan foydalanishga mahkum etilganini qattiq tanqid qiladi[1, -S.4]. Sotsializm umumiy sotsialistik xalq xo'jalik tarkibiy tuzulishi bir qator tizim, shu jumladan sotsialistik qishloq xo'jalik ishlab chiqarish tizimi kabi yirik davlat ishlab chiqarish elementlaridan hosil bo'lgandi. Unda ish beruvchi va ishchi o'rtasidagi munosabatlar ixtiyoriylik prinsipi asosida to'la qaror topishi qayd etilgan.

Sotsialistik davlat tuzulishi, ya'ni, sotsialistik komponentlar o'zaro aloqada va bir - birini taqazo etuvchi murakkab boshqaruv hosilasi hisoblanadi. Sotsialistik xo'jalik iqtisodiy va ishlab chiqarish kuchlari muvoffiqlashgan, yagona maqsadga yo'naltirilgan, tarmoq va korxonalar, xo'jalik hamda boshqa jarayonlarni mamlakat iqtisodi bilan bevosita bog'liq holda amal qiladi. Ya'ni, erkin bozor munosabatlari belgisi xususiy mulkchilik jamoaviylikka, talab va taklif markazlashtirilgan rejali boqaruv mexanizmiga o'zgartirildi. V.I.Lenin o'zining bir necha ishlarida[2] sotsialistik qishloq xo'jaligi nazariyasi mazmun-mohiyatini aniq ko'rsatib beradi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish evaziga sifat bosqichiga o'tish jarayonida sohada miqdoriy o'zgarishlar kuzatiladi. Oddiydan murakkabga, quyi bo'g'indan yuqoriga intilish hisobiga sifatga erishiladi. Misol uchun, qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida ommaviy foydalanib kelingan hayvonlar, oddiy mashina va mexanizmlardan yuqori ishlab chiqarish salohiyatiga ega texnikalarga, zamon talablaridan ortda qolgan qoloq texnikalardan kompleks mexanizatsiyalashgan va avtomatlashgan mexanizmlarga, oddiy mehnatdan murakkab, yuqori malakaga ega ishchi kuchi xizmatiga, kolxozlararo korxonalardan, kolxozlararo birlashmalarga o'tish sifat garovi sifatida taklif etiladi[3, -S.16]. Xususiylilik bilan jamoaviylik o'rtasidagi shafqatsiz kurash asnosida kechadigan o'tish bosqichi nafaqat sotsialistik qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tizimini shakllantirishni balki, sanoat va qishloq xo'jaligi o'rtasida mustahkam, barqaror ittifoqni ta'minlashdek muhim hayotiy vazifani ham uddalashni taqazo etadi. Zero, industurlashni kuchaytirish va qayta qurilayotgan qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish talablarini qondiradigan sanoat tarmoqlarini tez rivojlantirish bilan sanoat va qishloq xo'jaligi o'rtasidagi aloqani mustahkamlash yo'li tutildi[4, -B.658].

Sotsialistik xalq xo'jalik ishlab chiqarish tizimi

1-chizma



1917-yilda "Yer to'g'risida"gi qabul qilingan dekret[5, -S.17-20] bilan sotsialistik qishloq xo'jaligi tizimi nazariyasi huquqiy asosi yaratildi. Dekret yerga bo'lgan har qanday egalik huquqini bekor qilib, barcha yerlarni umumxalq mulki deb e'lon qildi. Nazariya tamoillariga ko'ra sotsialistik qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan iqtisodiyot o'rtasida yuzaga keladigan qarama-qarshilik rivojlanish omiliga aylandi. Qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish muntazam yangilik va eskilik o'rtasidagi kurashda o'z ifodasini topdi. Ushbu nazariya RKP 1919-yil 18-23 mart Moskvada bo'lib o'tgan VIII s'ezdida o'zining amaliy qiyofasiga ega bo'ldi. Unda partiya yangi programmasi qabul qilindi. S'ezd partiyani qishloq xo'jaligi sohasidagi vazifalarini belgilab berdi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun zudlik bilan:

- 1) yirik sotsialistik iqtisodiyot negizida qishloq xo'jaligini qayta qurish;
- 2) yerga jamoaviy ishlov berishga mo'ljallangan o'rtoqlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash;
- 3) bo'sh yerlarni davlat tashabbusi bilan yekilishini tashkillashtirish;
- 4) davlat barcha agronomik imkoniyatlarini safarbar etgan holda qishloq xo'jaligi mahsuldorlinigi oshirishi;
- 5) dehqonchilikda yirik ijtimoiy xo'jalikka ixtiyoriy uyushma shaklida o'tish maqsadida qishloq xo'jaligi kommunalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash[6, -S.26] ishlarini amalga oshirish buyurildi.

Sotsialistik qurilish nazariyasi tarafdorlari maqsadlari mushtarak bo'lsada, unga erishish yo'nalishi, mexanizmi, yo'llari, kutilayotgan natija borasidagi qarashlar turlicha edi. Xalq xo'jaligini jamoaviylik negizida qurish ushbu nazariya yadrosini tashkil etib, barcha tarafdorlar bu g'oyani yakdillik bilan, bir ovozdan qo'llab-quvvatlashadi. O'zgarishlar inqilobiy usulda va aniq muddat davomida qilinishi ham istisno etilmadi. Ko'pchilik tomonidan ma'qullangan g'oyalarning amaliy ahamiyati va amalga oshirish imkoniyati omma orasida shubha uyg'otmagan bo'lishi mumkin. Lekin sotsialistik qurilish strategiyasi deya talqin etilgan programma sinchiklab tahlil etilganda, qarashlarda tafovutlar ham mavjud ekani yaqqol ko'zga tashlanadi. Sotsialistik xalq xo'jaligi bilan qishloq xo'jaligi kooperatsiyasi o'rtasidagi hamkorlik, proletarait va dehqon, qishloq va shahar, qishloq xo'jaligi va sanoat ittifoqi, tovar-pul xo'jaligi va rejali iqtisodiyot, xususiy va davlat mulkchiligi, va nihoyat sotsializm bilan kapitalizm o'rtasidagi kurashda yakkol namoyon bo'ladi.

Ishlab chiqarish vositalariga jamoaviy egalik, bizni yagona bosh maqsadga olib boradi, albatta astoidil harakat qilish kerak. Va nafaqat sanoat sohasida, qachonki tayyorlangan frontda, balki barchasi, demak dehqonchilik sohasi ham bundan mustasno emas. Mulkka egalikning individual shakli hech qachon va hech qayerda barcha ishlab chiqaruvchilar uchun umumiy ko'rinishda qaror topmadi. Shunday ekan, xususiy mulkchilikning ijobiy foydasi haqida o'ylashning o'zi xom-xayoldan boshqa narsa emas, boz ustiga sanoat inqilobi allaqachon o'z poyoniga yetgan, yuqoridagilarni e'tiborga olib sotsializm individual mulkchilik shaklini qo'llashdan ko'ra uni bostirishdan manfaatdordir. Mayda ishlabchiqaruvchi huquqlarini himoya qilish bu ularning erkinligini anglatmaydi[7, -S.408].

K.Marks g'oyasiga ko'ra konflikt taraqqiyotga xizmat qilishi bashorat qilindi. Proletariat diktaturasi tashabbusi bilan yuzaga kelgan kurash, qishloq xo'jaligi tizimida shaxsiy va jamoa mulkchiligi o'rtasida bordi.

Sotsialistik qishloq xo'jalik ishlab chiqarish tizimi nazariyasiga ko'ra xususiy mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidan jamoaviy tartibga o'tishi lozim edi. 1918-1921-yillar sovetlar iqtisodiyotni boshqarishning harbiy usuli - "harbiy kommunizm" siyosatini tatbiq etdi. Bu siyosadan ko'zlangan maqsad fuqarolar urushida g'alaba qozonish, sotsialistik tuzum uchun zamin hozirlash bo'ldi. Jumladan, xususiy mulkchilikni bekor qilish; tovar - pul munosabatlarini to'xtatish va sanoatni natsionalizatsiya qilish; teng taqsimlashga asoslangan davlat tizimini o'rnatish; ish haqqini oziq - ovqat maxsulotlari bilan to'lash; shahar bilan qishloq o'rtasida to'g'ridan - to'g'ri tovar almashinuvini (barter) yo'lga qo'yish edi[8, -S.168]. Tadbirlar qat'iy ixtiyoriylikka rioya etilib, bosqichma-bosqich o'tkazilishi belgilandi. V.I.Lenin: "mayda dehqon xo'jaligidan yerga jamoaviy ishlov berish shakliga faqat ixtiyoriylik asosida o'tiladi, davlat

tomonidan ishchi-dehqonlarning bu jarayonga majburiy safarbar etilishiga yo'l qo'yilmaydi, qonunchilik bunga yo'l bermaydi" - deb ta'kidlaydi[9, -S.29]. Ammo harbiy kommunizm nazariyaning amalda mutloqa aksi ekanidan dalolat beradi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tizimi (kollektiv) g'oyasining insoniyat jamiyati o'tmishida biror analogi bo'lmasligi, amalda tatbiq etilgan nazariyada ko'plab xato va kamchiliklar borligini ko'rsatdi. Masalan, sovet xo'jaligining bevosita va ajralmas tarkibi qismi sifatida ko'rilgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tizimi Rossiya namunasidagi xo'jalik tipi ko'rinishida bo'lishi kerak edi. Vaholangki, sovet hukumati tarkibiga kirgan hududlarning ishlab chiqaruvchi kuchlari, tabiiy-iqlim sharoiti hamda maishiy hayotida yetarlicha tafovutlar mavjud edi. Xususan, O'zbekistonda amalga oshirilgan yer-suv islohotlari jarayoni yerni teng taqsimlash g'oyasi amalda o'zini oqlamadi. Respublikada jami 130.000 batmon yer hisobga olinib, teng taqsimlash amalga oshirilgan taqdirda har bir xo'jalik yarim desyatinadan ko'proq yerga ega bo'lardi. Ushbu raqamlar aholi yerga bo'lgan ehtiyojni 30-40 foizga qondirish mumkinligini ko'rsatadi. Yana bir ko'ngdalang turgan jiddiy muammo: yer berishni qanday ehtiyoj normalaridan kelib chiqib va kimga berish? [10, -S.46]. Bu holatda optimallashtirish tadbirlarni amalga oshirish salmoqli vaqt talab etishi hech kimda shubha uyg'otmasdi. Boz ustiga nazariyotchilarning o'zlari ham bu holatni oldindan fahimlagan holda "sovet hukumati mayda dehqon xo'jaliklari bilan bo'ladigan munosabatda ularga shaxsiy ishlab chiqaruvchi sifatida yondashadi, asta-sekinlik bilan jamoaviy tartibga o'tish jarayoni tashkil etilib, dastlab hamkorlik hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash taklif etiladi" [11, -S.518].

Sotsialistik qishloq xo'jalik ishlab chiqarish tizimi mohiyatini tushuntirish kommunistik partiyaning kechiktirib bo'lmas dolzarb vazifasi qilib belgilandi. Shu munosabat bilan partiya O'zbekistonda kommunist va mehnatkashlarni qishloq xo'jaligi sohasini modernizatsiyalashning ahamiyati bilan tanishtirish maqsadida g'oyaviy-siyosiy tarbiyani avj oldirdi. Targ'ibot - tashviqot ishlari shaharlar, asosan qishloq joylarida o'tkazilishi qattiq nazoratga olindi. 1920 yilning dekabrda ilk milliy jurnal SK KPPS rasmiy organi hisoblangan "Kommunist" nashr yuzini ko'rdi. Matbuot sovetlar tomondan ilgari surilayotgan g'oyalar targ'ibotini asosiy quroliga aylandi. Rus tilida nashr etilayotgan "Izvestiya" gazetasi bilan bir qatorda o'zbek tilida "Qizil bayroq" gazetasi nashr etish ham yo'lga qo'yildi[12, -S.130].

Sovet hukumati qishloqda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va dehqonlarning turmush darajasini ko'tarish fonida qishloq xo'jaligi negizida sotsialistik tuzumning kapitalistik elementlarga qarshi kurash shiorini o'rtaga tashladi. O'zbekiston umumiy kurash ko'lamiga tortilsada, bir qator o'ziga xosliklar bilan ajralib turdi. Yangi hukumatning respublikadagi dastlabki agrar islohotlari qishloqda olib borilgan sinfiy siyosat - dehqon xo'jaliklariga yordam berish, ularning xoxish irodasini mushtumzur va boylardan himoya qilish yo'nalishida olib borildi. Yuqorida qayd etilgan kurash feodal, boy, amaldor, yirik kapitalist va quloq ko'chma xo'jaliklarga qaratildi.

Ilgari surilgan g'oyalar keng qamrovli bo'lib, amalga oshirish bosqichlari va mexanizmlari amalda to'liq sinovdan o'tmagan. Qolaversa bozor munosabatlari qonuniyatiga asoslangan mezonlardan voz kechish, nisbatan katta mintaqada qisqa fursatlarda inqilobiy to'ntarishni amalga oshirishga qodir, nazariya va amaliyotni muvofiqlashtirgan universal strategiya yaratilganicha yo'q edi. Mamakatdagi iqtisodiy tanglik hamda ijtimoiy keskinlik tatbiq etilayotgan yangi tizim qoidalarini zudlik bilan o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritishni talab qiladi. Kuzatilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar sovetlarni sotsialistik xo'jalik nazariyasi tarikibida "o'tish bosqichi" deb nomlangan yangi band kiritishga undadi. 1921 yilda Yangi iqtisodiy siyosat (NEP) joriy etilib, iqtisodiy taraqqiyotda erkin savdo, pul aylanishi va pul islohotlari o'tkazildi. V.I.Lenin NEP haqida: "Sovet hukumatining yangi iqtisodiy siyosati ishchi va dehqonlar o'rasidagi aloqani yanada mustahkamlash hisobiga tovar ishlab chiqarishini kuchaytirish, xalq xo'jaligini tiklash, sotsializm g'alabasini ta'minlash[11] ga mo'ljallangan" - deb ta'rif berdi.

Ko'zda tutilgan tub islohotlar boshlanmasdan turib restavratsiyaga muhtoj bo'ldi. Albatta, bu holatda sodir bo'lishi kutilayotgan kurash keskin kechishi tushunarli edi. Binobarin, sotsialistik xo'jalik nazariyasida belgilangan ixtiyoriylik tamoillari bilan yanada aniq namoyon bo'layotgan

- 16 totalitar rejim o'rtasidagi kurash tobora chuqurlasha bordi. Yangi ishlab chiqarish tizimi hukumatining bevosita boshqaruvi ostida siyosiy dastaklardan to'liq va aniq foydalanish nazarda tutildi. Mayda ishlab chiqarishdan yirik qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tartibiga o'tish bevosita partiya, sovet va xo'jalik organlari hamkorligida olib borildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хрущев Н.С. О мерах дальнейшего развития сельского хозяйства СССР. Доклад на Пленуме ЦК КПСС 3 сентября 1953 г. Государственное издательство политической литературы, 1953. -С.4.
2. В.И.Ленин. Очередные задачи Советской власти/Н.Ленин;Российская коммунистическая партия (большевиков). — Екатеринбург : Издательство "Прибой" Уральского областного комитета Р. К. П. (большевиков), 1918. — 31., В.И.Ленин. О кооперации. Правда. 26-27 май, 1923 год., Натуральный налог вместо разверстки: доклад тов. Ленина на X съезде партии коммунистов (большевиков) о натуральном налоге.; Основные положения о замене разверстки натуральным налогом, принятые X съездом РКП; Постановление Президиума ВЦИК о замене разверстки натуральным налогом: - Екатеринбург : Гос. изд. Уральское обл. отд-ние : "Гранит", 1921, март. - 2 с. в 4 стб., Ленин, В. И. Полное собрание сочинений. — 5-е изд. — М.: Политиздат, 1974. — Т. 38. Март — июнь 1919. — С. 22—26.
3. А.В. Дергаль., Л.Н.Бурейко. Экономика и организация сельско-хозяйственного производства. Москва. "Просвещение", - С. 16
4. Совет иттифоки коммунистик партияси. Съездлар, конференциялар ва марказий комитетлар пленумларининг резолюция ва қарорларида. II қисм. 1924-1930 йй. -Тошкент: Ўзбекистон ССР давлат нашриёти, 1954. -Б. 658.
5. Декреты Советской власти. Т.І. М., Гос.изд-во полит.литературы, 1957. -С. 17-20
6. Хрестоматия по истории КПСС. В 2-х т. Т.2. М., Политиздат, 1965. -С. 26.
7. К.Маркс и Ф.Энгельс. Избранные произведения. Т. 2. М., Госполитиздат, 1955. -С. 408.
8. Жаҳон тарихи: (Энг янги давр. 1918-1945 йиллар III. қ) ўқув қўлланма /Ш.Эргашев; Ўзбекистон республикаси Фанар академияси Тарих институти. Тошкент: "Ўзбекистон" НМИУ, 2018. -С. 168.
9. В.И.Ленин. Полн. соб. соч. -Т. 38. -С. 29.
10. Акмаль Икрамов. Избранный труды. Том-1. Ташкент: Узбекистан, 1972. -С 46.
11. Маркс К., Энглес Ф. Соч. - 2-е, изд. - Т. 22. -С. 518.
12. Очерки истории коммунистической партии Узбекистана. Ред.коллегия: Э.Ю.Юсупов отв.ред. Т., "Узбекистан", 1974. -С. 130.
13. Известия 4 май, 1921 г.